

**O'QUV JARAYONIGA ZAMONAVIY PEDAGOGIK-
TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH TA'LIM
SIFATINI OSHIRISH GAROVIDIR**

M.A.Babayeva

Termiz muhandislik texnologiya institute assistenti

Annotation. O'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik-texnologiyalarini qo'llash-o'quvchi kamolotini ta'minlashga xizmat qiladi, mustaqil fikr yuritish, axborotlardan to'g'ri foydalanish, o'z ustida ishslash, umuman olganda kompetensiyalarini rivojlantiradi, ya'ni o'quvchilar uchun o'quv jarayoni - bilish jarayoni, uning faoliyati esa - bilish faoliyatidir.

Kalit so'zlar: pedagogik-texnologiya, interfaol, metod, ta'lif, ijodiy faoliyat, kompetensiya.

O'qituvchi ta'lif jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi va o'qitishdan ko'zda tutilgan ta'lifiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi. Bugungi kun o'quvchisi fanlardan nafaqat ma'lum bilim, ko'nikma va malakalar to'plamini o'zlashtirishi, balki ularni turli vaziyatlarda qo'llay olishlari ham zarur[6].

No'anaviy texnologiyalar asosida tashkil qilingan mashg'ulotlar - o'quvchilar egallayotgan bilimlarni mustaqil izlanib o'rganishgava natijalarni tahlil qilib, to'g'ri xulosalar chiqarishlariga qaratilgan. Ta'lif jarayonida o'qituvchi qatnashuvchilarda bilim va tarbiya olimshiga sharoit yaratadi, shu bilan boshqaruvchilikni, yo'naltiruvchilikni amalga oshiradi. Ushbu o'quv jarayonida o'quvchi asosiy sub'yektga aylanadi. Ta'lif jarayonida pedagogik texnologiyalarini o'rinni tatbiq

qilinishi o‘quvchilarning bu jarayonda asosiy tashkilotchi bo‘lishi sababli, ulardan ko‘proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi [1,157 b]. Har qanday pedagogik texnologiyaning o‘quv-tarbiya jarayonida qo‘llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, o‘quvchini kim o‘qitayotganligi va o‘qituvchi kimni o‘qitayotganligiga bog‘liq.

Pedagogik texnologiya asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning muhim hayotiy jarayonlarga o‘z munosabatlarini bildirishlariga, fikrlashga hamda fikrlarini isbotlashga imkon beradi. Bugungi kundayuz berayotgan innovatsion jarayonlarda ta’limdagi muammolarni yechishda yangi axborotni o‘zlashtirish va baholay oladigan kerakli qarorlarni qabul qila oladigan, to‘g‘ri fikrlay oladigan shaxslar zarur. Hozirgi kunda ta’lim berish jarayonini yuqori sifatli bo‘lishiga qaratilgan zamonaviy metodlar va texnologiyalarni yurtimizning hamma umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta-maxsus, kasbhunar hamda oliy ta’lim muassasalari, malaka oshirish institutlari va fakultetlarda keng ko‘lamda qo‘llanilib, ijobiy natijalar bermoqda [1,158 b].

L.O.Reznikov ta’kidlashicha «agar turli yoshdagi o‘quvchilar va o‘qituvchilar, ilmsiz va ilmlilar so‘zni har doim bir xil ma’noda qo‘llaganlarida edi, u holda o‘qitish, ta’lim berish, fikrni boshqalarga yetkazish mutlaqo hech qanday qiyinchilik tug‘dirmagan bo‘lar edi» [2, 84 b]. Demak, ta’lim jarayonida egallangan bilimlarni amaliy vazifalar bilan mustahkamlash natijasida kompetent o‘quvchi shakllanadi. Fanlararo o‘qitish jarayonida “Didaktik o‘yinli texnologiya”, “Modulli ta’lim texnologiyasi”, “Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi”, “Muammoli ta’lim texnologiyalari”, “Loyihalash texnologiyalari” metodlaridan foydalaniib, masala va mashqlar yechish o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun maktab o‘qituvchilari maxsus pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari, pedagogik amaliyotda zarur bo‘ladigan pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lishlari lozim.

Pedagogik texnologiya — bu o‘qituvchining o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchilarga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta’sir ko‘rsatish va bufaoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayonidir.

O‘quvchilar $(a+b)^2=(a+b)(a+b)=a^2+2ab+b^2$ topshirig‘ini amaliy bajarish asnosida quyidagicha xulosaga keladi: yig‘indining kvadrati birinchi sonning kvadrati qo‘shilgan birinchi va ikkinchi sonlar ko‘paytmasining ikkilangani qo‘shuv ikkinchi sonning kvadratiga teng. Xulosadan foydalanib qo‘shiluvchilar istalgan haqiqiy sonlar bo‘lganda, hattoki, qo‘shiluvchilar soni ikkidan ortiq bo‘lganda ham qo‘llash mumkin, bunda kuzatish metodidan foydalanildi[4].

$$(a+2b)^2 = (a+2b)(a+2b) = a^2 + 4ab + 4b^2$$

$$(a+2b-c) = a^2 + 4b^2 + c^2 + 4ab - 2ac - 4bc$$

Geometrik tushunchalarni o‘rgatishda taqqoslash metodidan foydalaniladi, masalan uchburchak bilan to‘rtburchak shakllari taqqoslanganda o‘xshash tomonlari: uchlari, burchaklari va farqli tomonlari uchburchakda uchta uch va uchtadan tomon, to‘rtburchaklarda esa to‘rtta uch va to‘rtta tomondan iborat[5]. Tengsizliklarni isbotlashda ham taqqoslash metodi qo‘l keladi. Fanlararo masalalarni yechish analiz va sintez metodiga asoslanadi, chunki o‘quvchi masala shartini tahlil qilib, nimadan foydalanish kerakligini fahmlaydi. Ayniqsa bunda o‘qituvchi masalaga yaqin hayotiy misol keltira olsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Umumlashtirish, abstraksiyalash metodlari yordamida teoremalarni isbotlashda, misol va masalalarni yechishda foydalanish mumkin. Abstraksiyalash usuli- narsalarning aniq holatidan uzoqlashib, ularning muhim belgilari bilan ish ko‘radi, masalan harakatga doir masalalarda 5 sonini piyodaning harakat vaqtini, 1 soatdagi tezligini 8 km deb olsak, 40 km piyodaning 5 soat vaqtdagi yurgan masofasini aniqlaydi [3].

ХУЛОКА

Demak, ta’lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ishtirokchilarninglarning bilish faoliyatini faollashtirish, o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, o‘qitishda masofaviy ta’lim va kompyuter savodxonligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Atabayeva, K. R. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati / Молодой ученый. — 2017. — № 24.1 (158.1).
2. Резников Л.О., Понятие и слово, ЛГУ, 1958 й., 84-бет
3. С.Л.Фоменко. Структура и содержание образовательной программы школы в условиях реализации компонентностной модели образование.Образование и наука.2010.11(79).
4. Alimov Sh.A, Xolmuhamedov O.R, Mirzaahmedov M.A. Algebra. Umumiyo‘rtta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik.- Toshkent: O‘qituvchi, 2017.- 45 b
5. Babayeva M.A “ Development of methods for the formation of interdisciplinary competencies in the education system ”. Academicia Globe: Inderscience Research, vol. 3, no. 03, Mar. 2022
6. M.A. Babayeva . S. Turdiyev. Fanlararo aloqadorlik asosida darslarda vektorlarning fizik va geometrik talqinlarini bayon etish texnologiyasi. JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH: 1 pp. 158-163 (3). 10.5281/zenodo.7741990